

Filologiya

UDK:821.512.133

UNIQUENESS IN THE INTERPRETATION AND RESEARCH OF THE SAMPLES OF MONISM LITERATURE

MONIYLIK ADABIYOTI NAMUNALARI TALQINI VA TADQIQIDAGI O'ZIGA XOSLIK

УНИКАЛЬНОСТЬ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ И ИССЛЕДОВАНИИ ОБРАЗЦОВ МОНИЗМСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Qarshiyeva Shohsanam Abdurashidovna

Guliston davlat universiteti, 120110, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: qarshiyeva1989@mail.ru

Abstract. First, the article provides detailed information about the religion of Monism, the Monism movement and the literature that arose under the influence of this movement and its emergence. The founder of Monism religion and his social origin, views, holy books compiled by him, and the essence of the requirements of Monism flow were described. Also, in the article, a detailed opinion was given about the scientific research work done on the interpretation of the samples of Monism literature. In particular, the books of the ancient Turkic literature researcher, Turkologist, professor Nasimkhan Rahmonov "The Light of the Soul", "History of Uzbek Literature", Samples of the History of Uzbek Literature" and articles with important scientific views on the subject were studied. Literary sources created under the influence of the flow of money, their artistic and literary value were proved through analysis. The scientific works of Aziz Kayumov, Muzaffar Mamatkulov, Abdurashid Abdurakhmanov, representatives of the literary-scientific school created by the scientist, show the emergence of monism literature, the importance of this period in the literary process, the poetics of literary sources created under the influence of the flow, ideological-artistic features, the system of symbols, images. Important thoughts and unique scientific views about language and language features were presented.

Key words: Moni ibn Fatak, Monian flow, Monian religion, Monian literature, "Xhuastuanift", Monian poems, Nasimkhan Rahmonov.

Аннотация. Во-первых, в статье дается подробная информация о религии монизма, движении монизма и литературе, возникшей под влиянием этого течения и его зарождения. Описаны основатель религии монизма и его социальное происхождение, воззрения, составленные им священные книги, суть требований течения монизма. Также в статье дано развернутое мнение о проделанной научно-исследовательской работе по интерпретации образцов литературы монизма. В частности, были представлены книги исследователя древнетюркской литературы, тюрколога, профессора Насимхана Рахмонова «Свет души», «История узбекской литературы», «Образцы истории узбекской литературы» и статьи с важными научными взглядами на данную тему. Литературные источники, созданные под влиянием денежного потока, путем анализа доказана их художественная и литературная ценность. Научные труды Азиза Каюмова, Музаффера Маматкулова, Абдурашида Абдурахманова, представителей литературно-научной школы, созданной ученым, возникновение литературы монизма, значение этого периода в литературном процессе, поэтика литературных источников, созданных под влиянием течения, идейно-художественные особенности, система символов, образов. Важные мысли и уникальные научные взгляды на язык и представлены особенности языка.

Ключевые слова: Мони ибн Фатак, монийское течение, монийская религия, монийская литература, «Хуастуанифт», монийские стихи, Насимхан Рахмонов.

Kirish. Qadimgi turkiy adabiyot bitmas-tuganmas xazina. Shu boisdan bu xazina adabiyot tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lgan. Xususan, "Xhuastuanift" ("Moniylar tavbanomasi") va bir qator she'rlardan tashkil topgan Moniylar adabiyoti ham adabiy manba sifatida o'rganilgan va bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Bu yo'nalishda bir qator adabiyotshunos olimlar, o'zbek va jahon adabiyoti tadqiqotchilarining ilmiy asar va maqolalarida atroflicha fikr-mulohazalarga duch kelamiz. Moniylar adabiyoti namunalari talqini va tadqiqidagi o'ziga xoslik haqida fikr yuritish ekanimiz, qadimgi turkiy yozma adabiy yodgorliklar tadqiqotchisi, tюрkolog, folklorshunos va madaniyatshunos olim, professor Nasimxon Rahmonovning bu boradagi izchil va salmoqli ilmiy izlanishlariga guvoh bo'lamiz. Olimning ilmiy faoliyati, tadqiqot ishlarini o'rganish jarayonida moniylar adabiyoti qadimgi turkiy adabiyotimiz tarixida o'ziga xos o'ringa ega ekanligiga ishonch hosil qilamiz [1], [2], [3].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

O'zbekistonda moniylar adabiyoti talqini va tadqiqiga oid keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq bu soha olimlarining ilmiy faoliyati haqida izchil ilmiy o'rganishlar mavjud emas. Maqolada nomlari tilga olingan olimlarning moniylar adabiyoti tadqiqidagi o'ziga xos ilmiy-amaliy izlanishlari, yaratilgan asar va maqolalari, olingan xulosalari qiyosiy-tarixiy metodda tekshirildi. Nasimxon Rahmonovning mavzu yuzasidan yozilgan kitoblari va olimning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiqotning eng muhim ob'ektidir. Olimning "Ruhyatdagi nur murodi", "O'zbek adabiyoti tarixi", "O'zbek adabiyoti tarixi namunalari" kitoblari va ilmiy qarashlari bayon etilgan maqolalari zamiriga singdirilgan moniylar adabiyoti xususidagi o'ziga xos ilmiy izlanishlarning tadqiq etilishi maqolaning ilmiy yangiligidir [1], [2], [3].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Moniylik adabiyoti tadqiqi va talqiniga oid ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning eng peshqadami professor Nasimxon Rahmonov sanaladi. Olim o'z izlanishlarida bu oqim ta'sirida yaratilgan qadimgi turkiy adabiyot namunalari haqida ma'lumot berish bilan cheklanmagan. Eng muhimi, "Xuastuanif"ni ham, moniylik oqimi she'rlarini ham adabiy-estetik, diniy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil va talqin etadi. Turkiyshunoslikda moniylik adabiyoti namunalarining qadimgi turkiy adabiyot qatlami sifatidagi ahamiyati, ayni paytda moniylik oqimi qadimgi turkiy adabiyotda alohida adabiy qatlamni yuzaga keltirganligi, bu oqim ta'sirida Moniy shaxsi ulug'langan she'rlar ham maydonga kelganligini o'z adabiy-ilmiy qarashlari orqali tahlil qiladi. Deyarli hamma she'rlarda Moniy buyuk iloh sifatida madh etilishi, bu lirik obrazning o'z davrida falsafiy-didaktik prinsipda baholanishi, umumlashma tip sifatida qaralishi, adabiy-nazariy ahamiyati kabi masalalarga umumiy xulosalar kiritadi [1], [2], [3].

Moniylik qadimgi turkiy xalqlar e'tiqodida alohida bir oqim bo'lib, milodiy III asrda Eronda vujudga kelgan bu dinning asoschisi haqida turli qarashlar mavjud. Uning asoschisi va targ'ibotchisi Suray Patik hisoblanadi. U 216-277 yillarda yashab o'tgan. Keyinchalik unga Moniy – "Ruh" laqabi berilgan. Bu nomning arablashtirilgan to'liq shakli X asr arab tarixchisi Ibn an Nadmning "Fihrist" kitobida Moniy ibn Fattaq Bobak ibn Abi Barzom deb zikr etilgan. Moniy ismining ma'nosi haqida turli ma'lumotlar bor. Moniyning izdoshlari uning ismini suryoniycha "Moniy tirik" so'zidan kelib chiqqan deb talqin qiladilar. "Telba", "odamxo'r", "qimmatbaho tosh" degan ma'nolari ham mavjud.

O'z davrida Moniylik dini juda ko'p mamlakatlarda, Rim imperiyasidan tortib Xitoygacha, xususan, O'rta Osiyo xalqlari orasida ham tarqalgan edi. Moniy Bobildagi ramollarning yil hisobi (Iskandar Zulqarnaynning yil hisobi) bo'yicha 527-yili Bobilda tug'ilgan. Yana o'sha yil hisobi bo'yicha 539-yil Moniy 13 yoshga to'lganda unga vahiy keladi. Moniyning ajdodlari Parfiya podsholari arshakiylar xonadoniga qarindosh bo'lgan va o'z davrida Parfiyaga qaram Bobil yurtiga yuqori mansablardan biriga tayinlab yuborilgan. Moniyning milodiy 2016-yilda (Arshakiylar podsholigi tugab, Sosoniylar hukmronligi boshlanishiga 10 yil qolgan bir vaqtda) Bobil yaqinidagi Mardinu qishlog'ida tug'ilganiga aynan shuni sabab qilib ko'rsatishadi. Moniyning onasi Maryam, yozma manbalarda xabar berilishicha, Parfiyada nufuzli Ashg'oniya urug'idan bo'lib, u ham Arshakiy podsholari xonadonidan bo'lgan. Ziyrak, qiziquvchan, ko'pincha o'z fikrlari og'ushida o'ychan yuruvchi Moniy yosh chog'ida otasining xizmati taqozosi bilan Bobil yaqinidagi Ktesifon shahriga ko'chib keladi. Moniy targ'ib qilgan dinning asosi – nur va zulmat o'rtasidagi azaliy konflikt ta'limoti. Uning mazmun-mohiyati ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga ishonish g'oyasidir. Moniylikdagi nur va zulmat tushunchalari yaxshilik va yomonlik kabi ijtimoiy-axloqiy kategoriyalarning timsoli sifatida ifodalanadi. Moniylikning muqaddas kitoblari uning o'zi tomonidan tuzilgan "Tirik Yevengeliya", "Pragmateyya", "Kafellayya" va boshqa kitoblardan iborat. Ularda yangi din ta'limoti asoslab berilgan. Shuningdek, Moniyning ma'naviy-axloqiy qarashlari uning "Sir ul-asror", "Kitob ul-xudo vost-tadbir" (Rahbarlik va boshqaruv kitobi), "Shaburkan" va boshqa asarlarida bayon etilgan. Moniylik dini xristianlik va zardushtiylik dinlarining ayrim ta'limotlarini o'zida mujassam etgan yangi dindir.

Moniy ibn Fatakning hayoti va ta'limoti haqidagi ma'lumotlarni avliyo Efrayim, avliyo Yepifoniyo, darvesh Avgustin asarlarida, nasroniy-suryoniy yilnomalarida, shuningdek, bir qancha arab, fors manbalarida ham uchratamiz. Moniyning aksariyat qarashlari hukmron doiralar manfaatlariga zid bo'lgan va 277-yilda Eron shohi Baxrom I tomonidan qatl etilgan va ta'limoti ta'qiqlangan. Xususan, Rim imperatori Diokletian tomonidan ham moniylikka qarshi maxsus farmon e'lon qilingan.

Moniylik oqimi talablarining mazmun-mohiyati quyidagilarda o'z aksini topgan edi [1], [2], [3]:

1. Iblislarning hukmronligiga barham berib, Xo'rmuzd xudo va Xo'rmuzdning beshta jangchisi – yengil shabada xudosi, shamol xudosi, nur xudosi, suv xudosi, olov xudosi yordamida nurni zulmatdan ajratmoq, ya'ni insoniyat ruhidagi zulmatga barham berib, nur olib kirmoq.

2. Nur bilan zulmatning, xudo bilan iblisning asosi Zervan ekanini e'tirof etgan holda, yaxshi va yomon narsalarning hammasini Zervan yaratganini bilmoq va buning uchun uni haqorat qilishdan o'zini tiymoq.

3. Xokisor bo'lmoq olamdagi jamiki moddiy va ruhiy yaratilmalarni – baxt va taqdir, rang va qiyofa, mohiyat va jon, qudrat va nur, asos va ildiz, beshala xudoning ne'mati ekanligini anglamoq, bu yaratilmalarni buzishdan saqlanmoq, bularga nisbatan yomon niyatni xayolga keltirishdan tiyilmoq.

4. Insoniyatga, jamiki, hayvonot-u parrandalarga, suv maxluqotlariga, nobotot olamiga ozor berishdan saqlanmoq.

5. Na fikrda, na so'zda, na amalda gunoh ish qilishdan saqlanmoq.

6. Begunohlarni ta'qib qilmaslik, mish-mish tarqatib, insonlarni badnom qilishdan ehtiyot bo'lishlik. Fikr-qarashlar pok bo'lmog'iga erishish, insonlarni aldamaslik, yo'ldan urmaslik, garovga berilgan narsalarni o'zlashtirishdan ehtiyot bo'lishlik, erkak va ayol o'rtasida gunoh ishlarga yo'l qo'ymaslik.

7. Sevgi, imon, ishonch, xudodan qo'rquv, donishmandlikni qalbga muhrlab olmoq.

8. Tanani sevishdan, yomon do'stlardan uzoq bo'lmoq, mol-mulkka ruju qo'ymaslik, faqirlikni ulug'lash, mol-mulkning o'ndan birini faqirlarga sadaqa qilish.

9. E'tiqodda sobitlik, o'ziga o'zi maftun bo'lmoqdan voz kechish, har doim gunohlardan forig' bo'lishga intilmoq va hakovzolar.

Xullas, Moniy ta'limotining bosh mezonini ruhiy barkamollik, asliy sobitlik, qalban poklanish, kibr va egaistlikdan xoli bo'lib xokisorlikda kun kechirmoqdan iboratdir.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tadqiqotchisi, professor N.Rahmonovning 2002-yilda nashr etilgan “Ruhiyatdagi nur murodi” kitobi “O‘tinarmiz... Moniyga” sarlavhasi bilan boshlanadi. Sarlavhaning o‘ziyoq olimning maqsadini oydinlashtiradi. Tadqiqotchi ushbu kitobida Moniylik oqimi ta’sirida yuzaga kelgan adabiy manbalarni o‘rganishdan avval tarixiylik prinsipiga tayanadi. E’tiborlisi, oqimning yuzaga kelishini shunchaki ma’lumot sifatida berib o‘tishdan ko‘ra tarixiy syujetni o‘z ijodiy tafakkuri bilan boyitishni afzal ko‘radi. Moniy shaxsiyatiga to‘xtalib uning o‘z davri uchun muhim bo‘lgan adabiy qahramon siymosini yorqinlashtiradi. Uning atrofidagi kishilarni ham o‘z ilmiy-ijodiy tafakkuri vositasida gavdanaltiradi. Yorqin va aniq bo‘yoqlar orqali chizilgan davr voqealari va ijtimoiy muhit tafsilotlari moniylik adabiyotining yuzaga kelish omillari va davr adabiyotining tadriji, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Batafsil voqea-hodisalar tasviri badiiy libosda taqdim etilishi kitobxon diqqatini tortadi, keng qamrovli adabiy tasavvur hosil qiladi. Unda ta’kidlanishicha: “Bir necha yildan buyon yurt bo‘ylab bir gap yurardi. Emishki, bir payg‘ambar chiqibdi, u jamiki mazlumlarni himoya qilar ekan, uning ta’limoti bo‘yicha bu olam muqaddas va qabih narsalardan, ezgulik va yovuzlikdan, haqiqat va yolg‘ondan, nur va zulmatdan iborat ekan. Bu kurashlar oqibatida olam telba, ruhsiz bo‘lib qolgan, deb aytar ekan va h... Shoh Bahrom esa fikrlar kurashiga qarshi jangga otlangan edi [1].

Moniyning tarafdorlari tezlik bilan ko‘paya bordi. Uning ta’limotini qo‘llab-quvvatlaganlar yurt uchun, ayniqsa, arkoni davlat uchun xavfli bo‘lib qoldi. Chunki Moniyning ta’limoti bo‘yicha, tepadagi o‘n qavat osmon ham, ostidagi sakkiz qavat yer ham, jamiki yer ustidagi narsalar – baxt va taqdir, rang va qiyofa, mohiyat va jon, qudrat va nur, asos va ildiz ham beshta xudo uchun ham atalib yaratilgan. Har kim mol-mulkidan sadaqa ulashishi, bir kunlik oziq-ovqati va bir yilga yetarli kiyim-kechagidan ortig‘ini istamasligi, bitta xotin bilan kifoyalanishi shart. Shunday ekan, arkoni davlat mol-mulkidan ayrilib qolishi hech gap emas edi. Buning ustiga, insonlarga, jamiki jonzotlarga azob berish ham og‘ir gunohdir. Agar Moniyning bu ta’limoti ham amalga oshgudek bo‘lsa, qullarni ushlab turish amri mahol bo‘lib qoladi”.

Haqiqatdan, endigina oyoqqa turib kelayotgan Sosoniylar sulolasi uchun Moniyning fikrlari suv bilan havodek zarur edi. Davlatning mustahkam qaror topishida bu ta’limotning ahamiyati katta edi. Ammo nodon hukmron tabaqa Moniyning fikrlaridan noto‘g‘ri xulosa chiqaradilar va o‘zlari uchun xavf-xatar yaratadilar. Moniyning ezgulik va yovuzlik, nur va zulmat o‘rtasidagi kurash aqidasi “tenglik” g‘oyasi ilgari surilganligi zodogonlarni tashvishga solib qo‘yadi.

Shohning atrofidagi xasadgo‘y, shuhratparast va o‘ta qo‘rqoq kishilar xalqning Moniyga ixlosi juda balandligini, olomon hatto uni payg‘ambar sanab, Kun, Oy xudolaridan yuqori qo‘yishlarini, shu bois uning ortidan ergashishi muqarrar ekanligini shohga yetqazadilar. Ular oddiy qora xalq o‘z olampanohidan emas, Moniydan najot kutib yurganligini ayg‘oqchi bilan oldindan kelishib olingan quyidagi she‘r bilan isbotlamoqqa urinadilar:

Tangri – porloq, kuchli donoga yolvorarmiz,
O‘tinarmiz Kun, Oy tangriga.
Yashin tangri, no‘m (qonun-qoida), quti (baxt),
Sodiq Moniy payg‘ambarga.
Qut baxsh eting, ey tangrim!
Vujudimizni saqlang!
Ruhimizni ozod qiling!
Qut, iltijo etarmiz nurli tangrilardan.
Qo‘rquvsiz turaylik,
Sevinch-la yashaylik.

Go‘yoki Moniyning qonun-qoidalari hoziroq yurti izdan chiqaradiganday, xalqni ko‘tarilishga, beboshlik ko‘chasiga kiradiganday shohning boshidan hushi ucha boshlaydi, qattiq sarosimaga tushib qoladi. Kaltafahm shoh o‘z ay‘onlarining yolg‘on-yashiq gaplariga berilib, Moniyning nur va ezgulikka yo‘g‘rilgan ta’limotini juda ham jo‘nlashtirib talqin qilgan zodagonlarning arzlariga quloq soldi. Shoh Moniyni tutib kelishlarini buyirdi. Yuz-ko‘zi bir ahvolda tovonida qotib qolgan qon izlari bor, ayanchli bir ahvolga tushgan Moniyning ko‘zlari g‘olibona boqardi, bu holatni butun xalq sezib turardi. Ko‘zlarida chaqnayotgan nur zulmatni yoritib turgan Moniyni sazoyi qilib saroyga olib keladilar. Shoh Moniyga uning ta’limoti hech narsaga arziyas, bekorchi gaplardan iborat ekanligini, uning qilayotgan ishlari telbalik ekanligini va xalq ana shunday bir telbaning ortidan ergashayotganligini ko‘rsatib qo‘yishga urinar edi va olomonni shunga ishontirmoqchi bo‘ldi. Lekin shoh quyida turgan Moniyning ko‘zlariga boqib bardosh berolmadi. Zero, Moniy o‘ziga qattiq e’tiqod qo‘ygan, yuksak g‘alaba ko‘zlari bilan hech bir taassufsiz tantana bilan turar edi. Nur bilan zulmatni bir-biridan ayirmoq, zulmat kuchlarini nur kuchlariga almashtirmoqni o‘z maqsadi, insonni qaramlikda emas, xokisorlikda ko‘rishni istagan Moniy yer yuzida tenglik bo‘lishini orzu qiladi. Shoh uning qo‘l ostida odamlari yo‘q ekanligini, ojizligini aytib kamsitmoqchi bo‘ladi. Shunda Moniy muqaddas yozuvlar, burxanlar, yaxshi xulqli, iymon-e’tiqodli kishilar o‘zining mustahkam kuchlari ekanligini, asosiy amali esa ichki ilohiy hislar bilan insoniyatni gunoh ishlar qilishdan saqlamoqlik ekanligini aytadi. Shuningdek, jonzotlarni qurbonlik qilmoqlik Moniy va uning izdoshlari uchun kechirilmas og‘ir gunoh edi. Bularni sezgan shoh o‘zining kaltafahmlik qilganini anglab qoladi. Lekin Moniyning kelajagi oldindan belgilangan edi. Shoh farmoniga binoan Moniyning terisi tiriklayin shilib olinadi va somon tiqiladi. Shundan so‘ng jasad Eronning Xuziston viloyatidagi Junjishopur shahri darvozasiga osib qo‘yiladi. Asrlar osha bu darvoza Moniy darvozasi deb atalib kelindi.

Shuningdek, "Ruhiyatdagi nur murodi" kitobida Beruniyning Moniy to'g'risidagi fikrlari ham o'rin olgan bo'lib, Abu Rayhon Beruniy o'zining "O'tmish asrlardan qolgan yodgorliklar" asarida Moniy shaxsi va uning faoliyatiga alohida e'tibor qaratganligi, asarlarini chuqur tahlil qilganligi muallif tomonidan ta'kidlanadi. Beruniy Moniyning "Shaburakan" asari to'g'risida alohida to'xtalib, bu asarning mohiyatiga katta urg'u beradi. Kitobning "Zardusht va Moniy" qismida muallif Moniyning payg'ambar deb e'tirof etilgan yoki etilmaganligiga ahamiyat qaratishdan ko'ra u yaratgan oqim ta'siridagi adabiyotning mazmun-mohiyatiga to'xtalishni afzal biladi. Muallifning fikricha, Moniyning nur va zulmat o'rtasidagi kurash g'oyasi Budda va Zardusht g'oyasining davomi hisoblanadi [1].

Moniylik adabiyoti tadqiqotchisi N. Rahmonovning 2005-yilda yaratilgan "O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari" darsligida ham moniylik oqimi ta'sirida paydo bo'lgan adabiyot namunalari parchalar keltirilgan. Qadimgi turkiy adabiyotda moniylik oqimi o'ziga xos oqimning mahsuli sifatida muhim ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda darslikda "Xuastuanift"ning tuzilishi, mohiyati va g'oyaviy yo'nalishi haqida batafsil ma'lumotlar bor. Asarning 15 ta bo'limi ham ketma-ketlikda berilgan. "Xuastuanift"ning obrazlar tizimi "Avesto" obrazlari bilan uyg'unligi, asarda zaddushtiylikning keyingi davrdagi mifologik qahramonlari ham qamrab olinganligi muallif diqqatini tortadi. Shu boisdan "Avesto" bilan "Xuastuanift" orasidagi g'oyaviy mushtaraklik ta'kidlanadi. Moniylik oqimi o'z davri uchun adabiy qimmat kasb etgan moniylik she'riyatini ham yuzaga keltirganligi muallif fikrlari asosida isbot qilinadi. Muallif moniylik adabiyoti she'rlari haqida fikr yuritir ekan, bu oqim she'riyatini baholashda davr adabiy muhitidan kelib chiqib mulohaza yuritadi. Moniylik oqimidagi qadimgi turkiy she'riyat o'z davri uchun shoirlar yetishtirib berganligi bilan ham qadrli ekanligini, shulardan biri Aprinchur tegin bo'lib, undan bizgacha ikki she'r namunasi yetib kelganligini qayd etadi. Moniylik she'rlarining mavzu ko'lamini, maqsad va g'oyalari haqida to'xtalib, bu oqim ta'sirida yaratilgan she'rlarda umumiy maqsad kishilarni gunoh ishlar qilishdan qaytarish ekanligini ta'kidlaydi. "Moddiy olamdagi hayot inson taqdirida qanchalik ro'l o'ynasa, ruhiy olamda ezgulik shunchalik muhim – moniylik she'rlaridan kelib chiqadigan xulosa shudir" deb yozadi professor Nasimxon Rahmonov. Olim bu oqim ta'sirida yaratilgan qadimgi turkiy adabiyot namunalari haqida ma'lumot berish bilan cheklanmagan. Eng muhimi, "Xuastuanift"ni ham, moniylik oqimi she'rlarini ham adabiy-estetik, diniy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil va talqin etadi. Turkiyshunoslikda moniylik adabiyoti namunalari qadimgi turkiy adabiyot qatlami sifatidagi ahamiyati, ayni paytda moniylik oqimi qadimgi turkiy adabiyotda alohida adabiy qatlamni yuzaga keltirganligi, bu oqim ta'sirida Moniy shaxsi ulug'langan she'rlar ham maydonga kelganligini o'z adabiy-ilmiiy qarashlari orqali qiyosiy metodda tahlil qiladi. Deyarli hamma she'rlarda Moniy buyuk iloh sifatida madh etilishi, bu lirik obrazning o'z davrida falsafiy-didaktik prinsipda baholanishi, umumlashma tip sifatida qaralishi, adabiy-nazariy ahamiyati kabi masalalarga umumiy xulosalar kiritadi [2].

2017-yilda olim Nasimxon Rahmonov tomonidan yaratilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligiga moniylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot haqidagi batafsil ilmiy xulosalarini va ishonchli, asl adabiy manbalar asosida to'plangan va o'zining ko'p yillik ilmiy-ijodiy tajribalari bilan to'yintirilgan qarashlarini batafsil bayon etadi. O'z yo'nalishida katta tajriba hosil qilgan tadqiqotchi moniylik oqimi va adabiyoti jamiyatga komil insonni yetkazib berishday o'ta muhim vazifani bajarganligi bilan ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, bu davr adabiyoti ta'sirida yozma adabiyotning paydo bo'lishi juda katta ma'naviy kashfiyot ekanligi ko'rsatiladi. Nasimxon Rahmonov tomonidan darslikda moniylarning tavbanomasi – "Xuastuanift" va uning qadimgi turkiydagi uchta nusxasi, manbaning o'rganilishi, tuzilishi, g'oyaviy mazmuni, asarning moniylar jamoasi uchun madhiya, nizom sifatida muhim ahamiyat kasb etganligi yuzasidan fikrlar bildiriladi. "Xuastuanift"ning ahamiyati moniylikni targ'ib qilishdangina iborat emas, balki bu oqimning paydo bo'lish omillari, asl mohiyati, moniylik qonunlarini o'rganish va jamoatchilikka o'rgatishdan iborat ekanligi mavzu mazmuniga singdirilgan. Asarning L.Dmitriyeva tiklagan to'liq varianti 15 bo'limdan iborat bo'lib, muallif har bir bo'limning mohiyatiga alohida alohida to'xtalib o'tadi. Xususan, birinchi bo'lim olamning ibtidosi ezgulikdan boshlanishiga ishora qiluvchi g'oyani ilgari surgan holda ezgulik kurashchisi Xo'rmuzdning yovuzlik olamiga qarshi otlangani, yaxshilik va yomonlikning to'qnashuvi natijasida insoniyat Xudoni unutib, o'ta og'ir gunoh ichida qolganligidan iborat. Insoniyatning eng og'ir gunohlaridan yana bittasi "Kimdir bironni tiriltirsa, Xudoni tiriltirgan bo'ladi, kimdir bironni o'ldirsa, Xudoni o'ldirgan bo'ladi" degan aqidani bilmasligida deyiladi. Olim darslikda "Xuastuanift"ning g'oyaviy mazmuniga alohida to'xtalib asarni Xo'rmuzd faoliyati bilan boshlashdan maqsad – olamning boshlanishi azaldan ezgulik bilan bog'liqligini, bu dunyo yaxshilik uchun bunyod etilganligini, jamiki jonzotlarning ruhiyati ezgulik va odamiylikka yo'g'rilganligida deb izohlaydi. Shuningdek, asarda Shmnu – yovuzlik timsoli bo'lib u Xo'rmuzd – ezgulik, nur timsoliga qarshi qo'yiladi. Nur bilan yovuzlik (Xo'rmuzd va Shmnu) qo'shib ketgandan so'ng yovuzlik bilan kurashish uchun osmondan Xo'rmuzd tushadi. Ammo Shmnni g'arazli niyati amalga oshib, insoniyatning ongi zaharlanadi. Oqibatda insonlar o'z ruhidan judo bo'ladi. Ruhsizlik kishilarning Xudodan uzoqlashishi, tana sevgisining kuchayishiga, ma'naviyatning moddiyat oldida chekinishiga olib keladi degan xulosalarni beradi. Olimning fikrlari adabiyot uchun juda zarur bo'lgan axloqiy-estetik prinsiplarda namoyon bo'ladi. Darslikda moniylik adabiyotining yuzaga kelishi, tadhiji, mazmun-mohiyatidan tashqari bu davr adabiyotining insoniyat ma'naviy svllizatsiyasida tutgan muhim ahamiyati ham ko'rsatib beriladi [3].

Nasimxon Rahmonovning "Ruhiyatdagi nur murodi", "O'zbek adabiyoti tarixi namunalari", "O'zbek adabiyoti tarixi" kabi kitoblari va mavzu yuzasidan yozilgan bir qancha maqolalari bilan bir qatorda, olimning shogirdi, filologiya fanlari doktori Muzaffar Mamatqulovning "Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Qadimgi turkiy adabiyot poetikasi", shuningdek, qadimgi turkiy adabiyot tadqiqotchilaridan Aziz Qayumov, Abdurashid

Abdurahmonovlarning ilmiy asarlarida moniylik adabiyotining yuzaga kelishi, bu davrning adabiy jarayondagi ahamiyati, oqim ta'sirida yaratilgan adabiy manbalarning poetikasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, timsollar tizimi, obrazlar ko'lam va til xususiyatlari haqida muhim fikrlar va diniy-falsafiy, axloqiy-estetik qarashlar bayon etilgan [3].

Adabiyotshunos Abdurashid Abdurahmonovning "Turkiy xalqlar og'zaki ijodi" qo'llanmasida ham moniylik adabiyoti haqidagi fikrlarni o'qiymiz. Islom sivilizatsiyasiga qadar bo'lgan davrdagi turkiy xalqlar badiiy ijodining rang-barang mahsuli bo'lmish yodgorliklar bilan tanishish, ularning umumiy adabiy jarayon tarixida tutgan mavqeyini belgilashga xizmat qiluvchi ushbu qo'llanmada moniylik ta'sirida yaratilgan she'rlarning mohiyati, badiiyati va shakliga ahamiyat qaratilgan. "Xuastuanift"ning mazmuni sodda va ravon tushuntirilgan. Moniylik dini, umuman turkiy xalqlar e'tiqod qilgan turli dinlar ta'sirida yaratilgan adabiy manbalar inson ruhi va qalbini poklashga, gunoh ishlar qilishdan tiyilishga undashi ta'kidlangan [4].

Qadimgi turkiy adabiyot tadqiqotchilaridan yana biri M. Mamatqulov ham o'zining ilmiy asarlarida bu davr adabiyotiga alohida to'xtalib, aniq va izchil tahlillar, adabiy-nazariy ma'lumotlar berib borganligini kuzatamiz. Olimning 2006-yil "Yangi asar avlodi" tomonidan nashr etilgan "Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya" risolasida qadimgi turkiy moniylik she'rlarining janriy xususiyatlari va badiiyatiga oid muhim tahlillar va nazariy ma'lumotlarni uchratamiz. Risolada ta'kidlanishicha, qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik janrining paydo bo'lishi Moniy muhitiga borib taqaladi. Tadqiqotchi tong tangrisiga bag'ishlangan madhiyani, Aprinchur tigin tomonidan yozilgan tangrining sifatleri ulug'langan to'rtlikni, 7 banddan tashkil topgan "O'lim tasviri" she'rini va Moniy ulug'langan madhiyani g'oyaviy-badiiy jihatdan tadqiq etadi. Ularning shakliy tomoniga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, olim mazkur kitobda "Moniylik adabiyoti namunalari zamiridagi badiiy tasviriy vositalari klassik adabiyotimizda ham davom etganligi qadimgi turkiy yozma adabiyotning muttasil rivojlanib borganligini isbotlashini uqtiradi. Moniylik she'rlari o'sha davrlarda yashagan turkiylarning dunyoqarashi, urf-odatleri, olamning tuzilishi to'g'risidagi tasavvurlari, diniy-axloqiy qarashleri o'z aksini topgan"ligini qayd etadi [5].

M. Mamatqulovning "O'zbek adabiyoti tarixi" (Eng qadimgi davrdan islomgacha bo'lgan adabiyot) o'quv qo'llanmasida ham moniylik oqimining paydo bo'lishi, mohiyati va taraqqiyoti haqida ma'lumotlar berilgan. Adabiyotshunos o'zining ko'p yillik ilmiy-adabiy kuzatishleri asosida bu oqim ta'siridagi adabiyotga xolisona baho beradi. Bu oqimning shakllanishi, uning turkiy yozma adabiyotga ta'siri hamda moniylik mifologiyasi haqida ilmiy-nazariy mushohadalar kiritadi. Olim moniylik oqimining turkiylar muhitiga kirib kelishi sabablarini ko'rsatish, moniylikning o'ziga xos mifologiyasiga baho berish bilan bir qatorda davr adabiyotining poetikasi ham alohida ahamiyat qaratadi [6].

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, diniy shakl va aqidalar hamma davrlarda insonning ma'naviy-axloqiy dunyosini shakllantirishga xizmat qilgan. Qadimgi turkiylar e'tiqod qo'ygan dinlar ham bundan mustasno emas. Masalan, totemizm insonni faqat biror hayvondan paydo bo'lishini eslatish va shu asosda unga e'tiqod qo'yish ruhini shakllantiribgina qolmaydi. Diniy e'tiqodlar ifodasini topgan asarlar shundan dalolat beradiki, inson shu hayvondagi kuch-qudrat, mehribonlik, sadoqatdan ibrat olishga chaqiriladi. Animizm ruhida asarlar insonda tabiatga, borliqqa mehr uyg'otadi. Yoki moniylik tavbanomalari insonni gunoh ishlardan saqlanishga, komilikka, insoniylikka zid fazilatlardan tiyilishga o'rgatadi. Insonning o'z imkoniyatlarini ishga sola bilishi, ertangi kun mas'uliyatini sezishi va kelajakni ang'lay bilishi shomoniylik ruhida asarlarning bosh g'oyasi hisoblanadi. Demak, har bir diniy asar inson ma'naviy dunyosi, borliq haqidagi kechinmalari ifodasidir. Tadqiqotchilarning moniylik adabiyotini o'rganishdagi fikr-mulohazalarini kuzatar ekanmiz, har bir davr adabiy merosi namunalari tahliliga kirishganda, avvalo, davrning paydo bo'lish tarixi haqida atroflicha fikr yuritganligiga guvoh bo'lamiz. Misol uchun, olimlar talqinidagi moniylik oqimi she'riyati xususiyatlarini ko'rib o'tsak. Moniylik she'rlari tahlil qilinar ekan, uning tarixi, nazariy ta'rifi, boshqa lirik janrlar bilan qiyosi, g'oyaviy-badiiy xarakteri, mavzu ko'lam kabi masalalar har bir tadqiqotchi tomonidan o'ziga xos tarixiy va qiyosiy metodda analiz qilinganligini kuzatamiz. Moniylik adabiyoti namunalari talqini va tadqiqida qadimgi yozma yodgorliklar tadqiqotchisi, turkolog Nasimxon Rahmonovning ilmiy-falsafiy, adabiy-nazariy qarashleri mustahkam poydevor vazifasini o'tab kelmoqda. Nafaqat moniylik adabiyoti namunalarining o'rganilishi, balki qadimgi turkiy yozma adabiyot tarixi va tadriji, ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganishda ustoz Nasimxon Rahmonovning nazariy va amaliy harakatlari, aniq fundamental ilmiy asoslari yirik bir ilmiy maktabni yaratdi. Bugungi kunda bu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh olimlar va izlanuvchan tadqiqotchilar aynan shu maktabning chinakam vakillaridir.

Olim moniylik adabiyotini tadqiq etish bilan bir qatorda uni xalqqa yaqinlashtirishga, bu adabiyot zamiridagi ilg'or ijodiy pafosni adabiyot ixlosmadleri qalbiga yuqtirishga muvaffaq bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent. "Xalq merosi" nashriyoti, 2002. 4-28 b.
2. Rahmonov N. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. Toshkent. "Fan". 2005. 27-34 b.
3. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. "Sano-standart". 2017. 64-b.
4. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. Toshkent. "Fan". 2020. 13-b.
5. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2006. 44-b.
6. Mamatqulov M. "O'zbek adabiyoti tarixi". Guliston. 2020. 11-32 bet

Muallif:

Qarshiyeva Shohsanam Abdurashidovna - Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi.